

QUDDUS MUHAMMADIY IJODIDA TABIATNING BADIY TASVIRI

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ ПРИРОДЫ В ТВОРЧЕСТВЕ
КУДДУСА МУХАММАДИЙ

ARTISTIC REPRESENTATION OF NATURE IN THE WORKS OF QUDDUS
MUHAMMADIY

Norxo'jayeva Mubinaxon Asadulloxon qizi

Fan va texnologiyalar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Kuchkarova Maxina Xodjimuratovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada o'zbek bolalar adabiyotining yirik namoyandasi Quddus Muhammadiy ijodida tabiat mavzusining badiiy talqini tahlil qilinadi. Adib asarlarida tabiat tasviri orqali bolalar dunyoqarashi, ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabati hamda inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik masalalari yoritilgan. Maqolada shoirning she'riy asarlaridan misollar asosida tabiat obrazlarining tarbiyaviy va estetik ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Quddus Muhammadiy ijodida tabiatning bolalar qalbida mehr-shafqat, mas'uliyat va insoniylik tuyg'ularini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Quddus Muhammadiy, bolalar adabiyoti, tabiat tasviri, obrazlilik, tarbiyaviy g'oya, she'riyat.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируется художественное воплощение темы природы в творчестве выдающегося представителя узбекской детской литературы Куddуса Мухаммади. В произведениях писателя через образы природы раскрываются мировоззрение детей, их отношение к окружающей среде, а также гармония между человеком и природой. На основе анализа поэтических произведений автора показано воспитательное и эстетическое значение природных образов. Особое внимание уделяется роли природы в формировании у детей чувств гуманизма, ответственности и бережного отношения к окружающему миру.*

Ключевые слова: *Куddус Мухаммадий, детская литература, образ природы, художественное изображение, воспитательная идея, поэзия.*

ANNOTATION; *This article analyzes the artistic interpretation of the theme of nature in the works of Quddus Muhammadi, a prominent representative of Uzbek children's literature. The study explores how images of nature reflect children's worldview, their attitude toward the environment, and the harmony between humans and nature. Based on examples from the poet's works, the educational and aesthetic significance of nature*

imagery is revealed. The article also highlights the role of nature in fostering values such as kindness, responsibility, and humanity in young readers.

Keywords: *Quddus Muhammadiy, children's literature, nature imagery, artistic representation, educational value.*

O'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida Quddus Muhammadiy ijodi alohida o'rin tutadi. Adib asarlarida bolalar dunyoqarashi, ularning tabiatga munosabati, inson va atrof-muhit o'rtasidagi uyg'unlik masalalari yetakchi g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, uning she'riy va nasriy asarlarida tabiat tasviri orqali bolalar qalbida mehr-shafqat, ma'suliyat, insoniylik kabi ma'naviy fazilatlar shakllantiradi²⁷.

To'qson yillik umrini bolalarga she'r, qo'shiq, doston, doston -ertak yaratishga qaratgan Quddus Muhammadiy 1907 yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga kelgan. Bolaligidanoq ilm olishga, ijodkorlikka bo'lgan qiziqishi tufayli ko'plab hikoyalar va she'rlar muallifidir. Uning ilk ijod namunalaridan biri "Tong o'yini" she'ri orqali ulkan adib Oybek bilan tanishgan. Ijod yo'li mobaynida tabiat go'zalligiga bo'lgan ulkan muhabbat shoirga hamisha hamrohdir. Maktabda muallimlik qilib yurgan paytida barg mavzusini o'tar ekan "Bargjon" she'rini yozadi. Shu tariqa uning "Momaqaymoq", "Qoqi o't", "Bog'imizda bir nok bor", "Tut", "Tolim gullaydi-yu, nega meva tugmaydi", "Tok daraxti bir xil-u uzumi nega har xil", "Shaftoli doktor", "Asalari va Ahmadjon" kabi she'rlari paydo bo'ldi.²⁸ Shu jihatdan shoirning Hamza nomidagi Respublika davlat mukofotiga sazovor bo'lgan "Tabiat alifbosi" turkumiga kirgan beshta to'plami xarakterlidir. Shoir bu to'plamlarga kirgan she'rlarida tabiat hodisalari, narsa va buyumlar, mo'jizalari haqida poetik xulosalar chiqargan. Bu xulosalar g'oyat bolalarbopdir. Chunonchi, zilzilani yerning gimnastika qilishi deb ta'riflasa, chuvalchangni «yer traktori» deb ataydi, gilosning qizilligini kichkinaligidan uyalishidan degan xulo saga keladi. Xullas, tabiat mavzusidagi har bir she'rida shu tariqa bolalar xarakteri va tushunchasiga xos ibratli fikr ifoda etiladi. Quddus Muhammadiy yosh kitobxonlar qalbida tabiat va inson kuychisi sifatida e'zozli bo'lib qoldi.

"Bahor keldi"

Qo'llarida soz bilan,
Gul g'uncha parvoz bilan,
Silkinib parvoz bilan,
Uchib turna, g'oz bilan,
Qadrdon bahor keldi

Yuqorida keltirilgan "Bahor keldi" she'ridan parchada Quddus Muhammadiy tabiat hodisasini bolalar tafakkuriga xos jonlantirish orqali tasvirlaydi. Bahor fasli "qo'llarida soz bilan" kelishi obrazli ifoda bo'lib, unda tabiatning uyg'onishi musiqiy ohang bilan

²⁷ Jumaboyev M. *Bolalar adabiyoti*. — Toshkent, 2010.

²⁸ Jumaboyev M. *Bolalar adabiyoti*. — Toshkent, 2010.

qiyoslanadi. Shoir bahorni shunchaki fasl sifatida emas, balki tirik, harakatdagi, quvonch ulashuvchi mavjudot tarzida gavdalantiradi. Bu esa bolalar tasavvurida tabiat va inson o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni kuchaytiradi.

She'rda qushlar — turna va g'ozlarning parvozi bahor kelishining muhim belgisi sifatida tasvirlanib, tabiatdagi uyg'unlik va harakat ramzi sifatida talqin etiladi. Shoirning "silkinib parvoz bilan" kabi takroriy ifodalari tabiatning jonlanish jarayonini dinamik holatda ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu holat Quddus Muhammadiy poetikasiga xos bo'lgan sodda, ammo ta'sirchan tasvir uslubini namoyon etadi. Ayniqsa, bolalar adabiyotida bunday musiqiylik va obrazlilik muhim estetik omil hisoblanadi. Mazkur she'r orqali shoir bolalarni tabiat hodisalarini kuzatishga, fasllar almashinuviga befarq bo'lmaslikka chorlaydi. Bahor faslining "qadrdon" sifatida ta'riflanishi esa inson va tabiat o'rtasidagi iliq munosabatni ifodalaydi. Bu esa bolalar qalbida tabiatga mehr, uni asrash va e'zozlash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan Quddus Muhammadiy ijodida tabiat faqat tasvir obyekti emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bulbul bilan qaldirg'och,

Oldi sho'x nayin.

Ku-kulab musicha

Tortdi surnayin.

Qizilishton osilib

Xifchinda dorboz.

Keltirilgan bolalarga xos quvnoqlik bilan yozilgan bu she'rda shoir qizilishtonning pastki qismi qizil rangdaligi uchun bu qushga shunday nom berilgan. Uni elektr simlariga qo'nib turishini dorbozning dorda turganiga o'xshatyapti. Bu misralar ni shaxslantish va metaforaga misol qilishimiz mumkin.²⁹

Xulosa qilib aytganda, Quddus Muhammadiy bolalar adabiyotida tabiat va inson munosabatini yoritishda o'ziga xos badiiy maktab yaratgan ijodkordir. Uning asarlarida tabiat bolalar dunyoqarashiga mos, jonli va obrazli shaklda tasvirlanib, yosh avlod qalbida insoniylik, mehr-shafqat va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois shoir ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va bolalar adabiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. — Toshkent, 2010.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. — Toshkent, 2006.

²⁹ Muhammadiy Q. Odam-olam qo'shig'i. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.

3. Muhammadiy Q. Odam-olam qo'shig'i. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.